



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 448 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiroy</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	
Ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlari	368
<i>Abdujalilova Sarvinov Rashid qizi, Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi</i>	

Ona va farzand munosabatlarida etnomadaniy omillarning psixologik xususiyatlari.....	373
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni	378
<i>Abdurahmanov Muhammadjon G'ulomjonovich</i>	
Aralash ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari.....	381
<i>Alibayev Sobir Xolboyevich</i>	
Formativ baholash jarayonidan foydalanib o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish	386
<i>Amirkulova Dilnoza Zokir qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogi faoliyatga tayyorlash tendensiyalari	389
<i>Artikbayeva Aziza Abror qizi</i>	
The Role of National Values in English and Uzbek Literature: a Comparative Study	392
<i>Ataniyazova Sohiba Xamidovna</i>	
Frans Kafka ijodining psixologik talqini.....	396
<i>Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich</i>	
Development of a Set of Health-Promoting Exercises for Middle-Aged Men 50-60 Years Old, Taking Into Account Physical Training	400
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarni jismoniy rivojlantirish metodikalari	404
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Современные мобильные технологии: эволюция и развитие.....	408
<i>Жураев Илхом Исхокович</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni	413
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Methodology for Developing Communicative Competence of Future Teachers Based on Multimedia Tools.....	418
<i>Kudratova Sultonposhsha Otabek qizi, Khalilova Mukhlisa Ulug'bek qizi, Ziyotova Umida Otabek qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida ona tili darslarida matn bilan ishlashni tashkil etish.....	423
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Milliy sport turlari orqali talaba yoshlar bilan interfaol dars jarayonini tashkil etish.....	426
<i>Mirzayev Az'am Xudaynazarovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Pedagogika bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga asoslangan barqaror bandligini ta'minlash modeli.....	430
<i>Omonova Mohiniso Maqsud qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari.....	435
<i>Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda web-kvest topshiriqlardan foydalanish.....	440
<i>Saidova Gavhar Ergashovna, Itolmasova Oygul Sabritdinovna</i>	
Developing Communicative Competence in English Language Education Through Modern Interactive Methods.....	443
<i>Sativoldieva Shoxsanam Utkir qizi</i>	

INGLIZ TILIDA MODALLIKNI IFODALASH VOSITALARI VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Abdujalilova Sarvinoz Rashid qizi
Mustaqil izlanuvchi

Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tilida modallikni ifodalash vositalarini tadqiq etish va ularning semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda modallik tushunchasi so'zlovchining bayon mazmuniga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi eng muhim til kategoriyalaridan biri sifatida ko'rib chiqilib, asosiy e'tibor modallikni ifodalovchi vositalarga, jumladan, modal fe'llar, modal so'zlar, kirish konstruktiviyalari hamda grammatik vositalarga qaratilgan.

Shuningdek, maqolada modal birliklarning semantik ma'nolari – imkoniyat, zarurat, ehtimollik, taxmin, majburiyat va baholash kabi ma'nolar tahlil qilinadi hamda misollar asosida izohlanadi. Bundan tashqari, mualliflar tomonidan turli xil tilshunos mutaxassislarining fikrlari qisqacha keltirib o'tilgan bo'lib, bu ishning ham amaliy, ham nazariy tahliliga katta hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: modallik, morfologiya, mayl shakllari, semantik xususiyatlar, konstruktiv, sintaktik belgilar, modal fe'llar, lingvistik kategoriya, zamon, grammatik hodisa.

Abstract: This article is devoted to the study of the means of expressing modality in the English language and the analysis of their semantic features. The paper considers the concept of modality as one of the most important linguistic categories reflecting the speaker's attitude toward the content of an utterance. Particular attention is paid to the main means of expressing modality, including modal verbs, modal words, introductory constructions, and grammatical means.

The article also analyzes the semantic meanings of modal units such as possibility, necessity, probability, supposition, obligation, and evaluation, explaining them through examples. In addition, the authors briefly present the opinions of various linguists, which makes a significant contribution to both the practical and theoretical analysis of the study.

Key words: modality, morphology, mood forms, semantic features, constructive and syntactic characteristics, modal verbs, linguistic category, tense, grammatical phenomenon.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию средств выражения модальности в английском языке и анализу их семантических особенностей. В работе понятие модальности рассматривается как одна из важнейших языковых категорий, отражающая отношение говорящего к содержанию высказывания. Основное внимание уделяется средствам выражения модальности, включая модальные глаголы, модальные слова, вводные конструкции и грамматические средства.

Также в статье анализируются семантические значения модальных единиц - возможность, необходимость, вероятность, предположение, обязанность и оценочность, которые объясняются на основе примеров. Кроме того, авторами кратко представлены мнения различных лингвистов, что вносит значительный вклад как в практический, так и в теоретический анализ исследования.

Ключевые слова: модальность, морфология, формы наклонения, семантические особенности, конструктивные и синтаксические признаки, модальные глаголы, лингвистическая категория, время, грамматическое явление.

KIRISH

Globalashuv va madaniyatlararo muloqotning tobora ortib borayotgan ahamiyati sharoitida chet tilini bilishning o'zi emas, balki uning til birliklari mohiyatini xorijiy til sohiblari tomonidan qanday qabul qilinishi va tushunilishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, til manzaralarining muqarrar to'qnashuvini inobatga olganda, bu masalalar yanada dolzarblashadi. Bunday muammolar modallikni ifodalash jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi, shuning uchun uni o'rganishning dolzarbligi ortib bormoqda. Modallik kategoriyasi zamonaviy ingliz tili grammatikasi va semantikasida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Ko'pchilik tilshunoslarning fikricha, ingliz tilida boshqa tillarga nisbatan tarjima qilish



yoki o'rganishda modallik kategoriyasidek katta qiyinchilik tug'diradigan boshqa leksik-grammatik kategoriya mavjud emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Lingvistik adabiyotlarda modallik bayon mazmunining voqelikka munosabatini uning realligi, imkoniyati, zarurligi yoki istalganligi nuqtayi nazaridan ifodalovchi funksional-semantik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Ushbu kategoriya bo'yicha eng nufuzli tadqiqotchilardan biri bo'lgan F.R. Palmer modallikni "gapiruvchining propozitsiyaga bo'lgan subyektiv munosabatining grammatiklashuvi" deb ta'riflaydi. Bu ta'rif modallikning ikki tomonlama tabiatini ta'kidlaydi: bir tomondan, u grammatik hodisa bo'lsa, ikkinchi tomondan, sof semantik va pragmatik hodisa hisoblanadi ^[1].

Ushbu kategoriyaning falsafiy asoslari G.X. fon Vrigtning modal mantiq nazariyasiga borib taqaladi. Ushbu nazariyada zarurat va imkoniyatning aletik operatorlari ajratib ko'rsatilgan. Keyinchalik bu tasnif J. Lyons tomonidan lingvistik tahlilga moslashtirilib, epistemik va deontik modallik farqlab berilgan, so'ngra esa J. Nuyts va J. Koateslarning ilmiy ishlari orqali yanada kengaytirilgan ^[2].

Bugungi kunda umumiy tilshunoslikda modallikning ikki turi – obyektiv va subyektiv modallik ajratib ko'rsatiladi. Bunday tasnif V.V. Vinogradov, B.N. Bondarenko hamda V.Z. Panfilovlarning ilmiy ishlarida uchraydi. Hozirda ingliz tili tarjimai va o'rganish amaliyoti doirasida biz, asosan, subyektiv modallikni ifodalash masalasi bilan to'qnash kelamiz. Chunki u gapiruvchining atrofdagi voqelikka bo'lgan munosabatini, ya'ni harakatning amalga oshishi yoki amalga oshmasligi (reallik yoki noreallik) nuqtayi nazaridan ifodalaydi ^[3].

Tilshunos olim N.Q. Turniyozovning ta'kidlashicha, gap tarkibidagi modallik belgisi bir tomondan so'zlovchining ruhiy holati va ichki munosabati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa u ifodalayotgan ma'no bilan chambarchas aloqador hisoblanadi. Shu jihatdan akademik V.V. Vinogradov modallik kategoriyasining mazmuni va shakliga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, gap voqelikni insonning ijtimoiy ongida aks ettirar ekan, u albatta nutqning voqelikka bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Shu sababli modallik kategoriyasi gap va uning turli ko'rinishlari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Har qanday gap o'zining muhim konstruktiv belgisi sifatida modallik ma'nosini, ya'ni voqelikka munosabatni ifodalash xususiyatiga ega. Fikr, hissiyot yoki istakning har qanday ifodasi til tizimidagi muayyan intonatsion va sintaktik shakllar orqali namoyon bo'lib, ular birgalikda modallik kategoriyasini yuzaga keltiradi ^[4].

Birgina modallik kategoriyasi doirasida juda ko'p va turli vositalarning birlashishi tilshunoslar orasida ayrim munozaralarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Shu bois olimlar ushbu vositalarni birlashtirib turuvchi umumiy belgini aniqlashga harakat qilganlar. Ma'lum bo'lishicha, bu vositalarning barchasi o'z vazifasini gap sathida amalga oshiradi. Aynan mana shu sintaktik xususiyat ularni yagona tizim sifatida birlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra modallik vositalari odatda quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- konstruktiv-sintaktik vositalar;
- morfologik-sintaktik vositalar;
- intonatsion-sintaktik vositalar.

Tilshunoslikda modallikning umumiy talqini asosan mazmun nuqtayi nazaridan yoritiladi. Bunda asosiy e'tibor munosabat ma'nosining ifodalanishiga qaratiladi ^[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan nazariy hamda tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini modallik kategoriyasiga oid mahalliy va xorijiy tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etdi. Jumladan, F.R. Palmer, J. Lyons, V.V. Vinogradov, B.A. Ilish va boshqa tadqiqotchilarning modallik nazariyasiga doir ishlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy metod yordamida ingliz tilida modallikni ifodalovchi grammatik, leksik va sintaktik vositalarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, tavsifiy metod asosida modal fe'llar, modal so'zlar, kirish konstruktsiyalari hamda mayl shakllarining semantik ma'nolari yoritildi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz tili grammatikasiga oid ilmiy adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda badiiy matnlardan olingan misollardan foydalanildi. Misollarni tahlil qilish jarayonida modal birliklarning imkoniyat, ehtimollik, zarurat, majburiyat, taxmin va baholash kabi ma'nolarni ifodalashdagi o'rni aniqlandi.

Shuningdek, semantik tahlil metodi orqali modal vositalarning nutqdagi funksional xususiyatlari va ularning kontekstga bog'liq holda ma'no ifodalash imkoniyatlari o'rganildi. Olingan natijalar umumlashtirish metodi asosida tizimlashtirilib, ingliz tilida modallikni ifodalash vositalarining semantik xususiyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz tilida modallikni ifodalashning asosiy usullariga grammatik, leksik va sintaktik vositalar kiradi. Modallikni ifodalovchi grammatik vositalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Modal fe'llar (can, must, may, should, ought to, would);
2. Modal fe'l vazifasini ham bajaruvchi ko'p funksiyali fe'llar (shall, should, will, would, need);
3. Infinitiv konstruksiyalar (Complex Subject);
4. Mayl shakllari (Indicative Mood, Imperative Mood, Subjunctive Mood).

Modallikni ifodalovchi leksik vositalar esa quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: modal so'zlar va modal birikmalar (of course, surely, in fact va boshqalar), shuningdek, modal yuklamalar (yet, simply, just va boshqalar). Shuningdek, modallikni ifodalovchi sintaktik vositalarga inversiya kabi stilistik usul kiradi, intonatsion-sintaktik vositalarga esa intonatsiya mansubdir ^[6].

B.A. Ilishning ta'kidlashicha, modal fe'llar guruhi ma'no, qo'llanish va grammatik shakllar jihatidan boshqa barcha fe'llardan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan kam sonli fe'llarni o'z ichiga oladi. Ushbu fe'llar sof fe'lga xos grammatik kategoriyalarning birortasiga ham ega emas, ya'ni ularda aspekt, zamon munosabati va nisbat kategoriyalari mavjud emas. Ular faqat mayl va zamon shakllariga ega bo'lishi mumkin bo'lib, bu shakllar kesimning ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ularda nopredikativ shakllar – infinitiv, gerundiy va sifatdosh shakllari ham mavjud emas. Shu sababli modal fe'llar ingliz tili fe'llar tizimining periferik qismida turadi.

Gapdagi vazifasiga ko'ra modal fe'llar yordamchi fe'llar hisoblanadi. Ular mazmuniy fe'l orqali ifodalangan harakatning imkoniyati, qobiliyati, ehtimolligi yoki zarurligini bildiradi. Modal fe'llar harakatning o'zini emas, balki unga bo'lgan modal munosabatni ifodalagani sababli, ular hech qachon gapning mustaqil bo'lagi sifatida qo'llanmaydi. Modal fe'llar doimo infinitiv bilan birikib keladi va gapda murakkab modal kesimni hosil qiladi ^[7].

Modal fe'llar must, should/ought to, will/would, can/could, may/might, need turli xil taxmin, ehtimol va imkoniyat ma'nolarini ifodalashi mumkin. Mutaxassislarning fikricha, modal fe'llar ko'proq obyektiv reallikni, kirish so'zlar esa (perhaps, probably, certainly va boshqalar) subyektiv munosabatni bildiradi.

Masalan, can va may fe'llari asosan mumkin bo'lgan yoki taxmin qilinayotgan harakatni ifodalashga xizmat qiladi. Must, should, might esa nafaqat majburiyat ma'nosini, balki ehtimoliy yoki taxminiy harakatni ham bildiradi. Shu sababli ular perhaps, possibly, probably, certainly kabi kirish so'zlarning ma'nosiga yaqinlashadi ^[8].

Modal fe'llar va kirish so'zlar birgalikda qo'llansa, ular ko'pincha ma'nodosh (sinonimik) konstruksiyalarni hosil qiladi.

Gapda modal fe'llar doimo infinitiv bilan (oddiy yoki perfect infinitiv bilan) birga ishlatiladi va u bilan birgalikda qo'shma kesim hosil qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, modal fe'llar mustaqil gap bo'lagi sifatida ishlatilmaydi.

Imkoniyat va taxmin ma'nolarini ifodalovchi modal fe'llarni batafsil ko'rib chiqadigan bo'lsak, can fe'li Indefinite Infinitive bilan birga kelganda, biror ish-harakatni bajarish imkoniyati yoki qobiliyatini bildiradi va o'zbek tiliga "qila olmoq", "uddalay olmoq", "mumkin bo'lmoq" deb tarjima qilinadi. "Can/could" modal fe'llari ingliz tilidagi eng ko'p ishlatiladigan modal fe'llardan biri hisoblanadi. Odatda, hozirgi va kelasi zamon ma'nosida ishlatiladi. Masalan:

1. We can see the lake from our bedroom.
Biz yotoqxonamiz derazasidan ko'lni ko'ra olamiz.
2. I haven't got a pen. You can use mine.
Menda ruchka yo'q. Sen menikidan foydalanishing mumkin.
3. I can come and see you tomorrow if you like.
Agar xohlasang, men ertaga seni ko'rgani kela olaman.

Could – can fe'lining o'tgan zamon shakli bo'lib, o'tmishda mavjud bo'lgan qobiliyat yoki imkoniyatni bildiradi. O'zbek tiliga "qila olardi", "uddalardi", "mumkin edi" deb tarjima qilinadi. Bunga misol sifatida quyidagi gaplarni keltirish mumkin:

1. He could swim very well when he was young.
U yoshligida juda yaxshi suza olardi.
2. He could speak English when he was young.
U yoshligida ingliz tilida gaplasha olardi.



Ushbu modal fe'llarning passive infinitive holatida, ya'ni can/could + be + V3 shakli majhul nisbatda qo'llanilganda, gapda quyidagicha keladi:

1. The steamer can be unloaded tomorrow.

Paroxod ertaga tushirilishi mumkin.

Paroxodni ertaga tushirish mumkin.

2. This work could be done at once.

Bu ish darhol bajarilishi mumkin edi.

Bu ishni darhol bajarish mumkin edi.

Can ba'zan imkoniyat yoki ehtimolni ham bildirib, taxmin ma'nosida keladi: We can go to the cinema (Biz kinoga borishimiz mumkin). Agar could ishlatilsa, undagi taxmin yoki imkoniyat darajasi kamroq ishonchli bo'ladi: We could go to the cinema (Balki kinoga borarmiz) ^[9].

"May/might" modal fe'llari qo'llanish chastotasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi va asosan ruxsat yoki imkoniyat ma'nolarini ifodalash uchun ishlatiladi. Ko'pchilik hollarda bu modal fe'l, xuddi "can" kabi, hozirgi va o'tgan zamonda qo'llanadi. Boshqa zamon shakllarini ifodalash uchun esa ba'zida "to be allowed to", "to be permitted to" kabi muqobil konstruktsiyalardan foydalaniladi:

1. But of them it is not permitted to speak.

Ammo ular haqida gapirishga ruxsat etilmaydi.

Might fe'li perfect infinitive bilan qo'llanganda, so'zlovchi unchalik ishonch bildirmaydigan ehtimoliy harakatni ifodalaydi:

- there might have been some grumbling about 'dealing locally'...
- "Mahalliy savdo" haqida ba'zi noroziliklar bo'lgan bo'lishi mumkin edi...

Yoki amalga oshishiga oz qolgan harakatni bildiradi:

- watch your step! The staircase is so rickety. Last time I might have broken my neck.
- ehtiyot bo'li! Zinapoya juda qaltis. O'tgan safar bo'ynimni sindirib qo'yishim mumkin edi.

"Must" modal fe'li qo'llanilish sohasi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. U bitta shaklda qo'llanib, ham hozirgi, ham kelasi zamon ma'nosini ifodalaydi. Must + Perfect Infinitive konstruktsiyasi o'tmishga oid, muallif juda ishonadigan taxminni bildiradi. Masalan:

1. The Gaffer is getting old ... and it must have been near dark when this fellow came up the Hill...

Chol qarib qolgan ... va bu odam Tepalikka chiqqanda, ehtimol allaqachon qorong'i tushgan bo'lsa kerak.

Agar taxmin kelajakka taalluqli bo'lsa, ingliz tilida "evidently", "probably" kabi so'zlar ishlatiladi; ular o'zbek tiliga "ehtimol", "ko'rinishidan", "aftidan" deb tarjima qilinadi. Boshqa zamon shakllarini ifodalash uchun esa must o'rninga quyidagi muqobil konstruktsiyalar ishlatiladi:

- to be to;
- to have to;
- ought to;
- to be compelled to va boshqalar ^[10].

Modal konstruktsiya hisoblangan "have to" o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarda ishlatiladi. Bu konstruktsiya asosan zarurat yoki majburiyat ma'nosini bildiradi:

1. But we have got to try and get there.

Ammo biz u yerga yetib borishga harakat qilishimiz kerak.

Modal fe'l "ought to" ma'lum bir harakatning mantiqan kutilishini bildiradi.

"Shall" fe'li ayrim hollarda modal ma'nolarni ifodalaydi va so'zlovchining irodasi, buyrug'i, va'dasi, tahdidi, harakatga undashi, bashorati kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan:

1. You shall go away with Mr. Smith!

Sen janob Smit bilan ketasan!

XULOSA VA TAKLIFLAR

Modallik kategoriyasi ingliz tili tizimida eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. Chunki aynan modallik orqali so'zlovchining aytilayotgan axborotga bo'lgan munosabati, fikrning ishonchlilik darajasi, harakatning zarurligi, ehtimolligi, istalganligi yoki imkoniyati ifodalanadi. Modallik kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo'lib, gap mazmunini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi hamda so'zlovchining subyektiv pozitsiyasi va nutqiy niyatini aks ettiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida modallikni ifodalovchi vositalar juda keng va xilma-xildir. Ularning asosiylariga modal fe'llar, modal so'zlar va ravishlar, kirish konstruktsiyalari, intonatsion vositalar, shuningdek, ayrim grammatik va leksik tuzilmalar kiradi. Ayniqsa, can, could, may, might, must, should, ought to, have to, shall/will kabi modal fe'llar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular imkoniyat, zarurat, taxmin, ehtimollik, ruxsat, majburiyat va maslahat kabi turli ma'no nozikliklarini ifodalashda eng faol vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir modal vosita o'ziga xos semantik xususiyatga ega bo'lib, uning ma'nosi qo'llanish kontekstiga bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, modallik nutqning subyektivligi bilan chambarchas bog'liq ekanligini va axborotni baholashdagi kognitiv jarayonlarni aks ettirishida ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Modal konstruktsiyalar yordamida so'zlovchi o'z fikrini, hissiy munosabatini hamda ma'lum bir faktga bo'lgan ishonch darajasini ifodalay oladi. Shu sababli modallik nafaqat og'zaki nutqda, balki ilmiy, publitsistik, badiiy va rasmiy-uslubiy matnlarda ham keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Костюченко В.Ю. Категория модальности с точки зрения логики и лингвистики: сходства, различия и перспективы синтеза. Журнал Белорусского государственного университета. Филология. 2018;3:71–82. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/214870/1/71-82.pdf>
2. Аржанова И. А., Лютяева Г. Р. Способы выражения модальности в англоязычном художественном тексте (функционально-переводческий аспект). <https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-vyrazheniya-modalnosti-v-angloyazychnom-hudozhestvennom-tekste-funksionalno-perevodcheskiy-aspekt>
3. O'ktamova M.X., Ko'ziyeva Z. A. Ingliz va o'zbek tillarida modal fe'llarning chog'ishtirma tahlili. International journal of scientific researchers. ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493. Volume 16, issue 2, March 2026.
4. Калянова Л. М. Средства выражения модальности в английском языке. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # 7 (16), 2015 | Филологические науки. <https://cyberleninka.ru/article/n/sredstva-vyrazheniya-modalnosti-v-angliyskom-yazyke>
5. Абдурахмонова А.М. Тилшуносликда модаллик категорияси, модал сўзлар ва модал иборалар хусусида илмий назариялар талқини. <https://cdn.uz.uz/2025/02/21/18/22/ZezKhy4Lgqv5WNSYfoZ8i4S36aale6C8.pdf>
6. Т. Блерина. Морфологические средства выражения модальности возможности в английском, албанском и русском языках. Вестник РУДН, серия Лингвистика, 2012, № 3. <https://ispan.waw.pl/ireteslaw/bitstream/handle/20.500.12528/483/document%2845%29.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
7. Ильиш Б.А. Грамматика английского языка. – Л., 1959. – С. 117–125.
8. Sharipov M.O. The linguistic and functional features of modal verbs in English. Yurt faxri ilmiy-amaliy ko'rik tanlovi. <https://interspp.com/index.php/yurtfaxri/article/download/1756/1329>
9. O'ktamova M.X., Ko'ziyeva Z. A. Ingliz va o'zbek tillarida modal fe'llarning chog'ishtirma tahlili. International journal of scientific researchers. ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493. Volume 16, issue 2, March 2026.
10. Аржанова И. А., Лютяева Г. Р. Способы выражения модальности в англоязычном художественном тексте (функционально-переводческий аспект). <https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-vyrazheniya-modalnosti-v-angloyazychnom-hudozhestvennom-tekste-funksionalno-perevodcheskiy-aspekt>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.